# BUDJETNING OCHIQLIGINI VA BYUDJET SIYOSATINING TAMOYILLARI

**Ismatov Shohislom Nabi o‘g‘li**
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Received: 16.08.2025
Revised: 18.08.2025
Accepted: 19.08.2025
**Key words:**
byudjetning ochiqligi, byudjet siyosati, byudjet boshqaruvi, moliyaviy shaffoflik, moliyaviy javobgarlik, davlat byudjeti, moliyaviy barqarorlik, byudjet tamoyillari.

**Abstract**
Ushbu maqolada byudjetning ochiqligi va byudjet siyosatining tamoyillari tahlil qilinadi. Byudjet ochiqligi davlat moliyaviy boshqaruvida shaffoflik va javobgarlikni ta’minlash uchun muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada byudjet siyosatining asosiy tamoyillari, jumladan samaradorlik, adolatlilik, barqarorlik va oshkoralik, shuningdek, ularning davlat byudjetini boshqarishda qo‘llanilishi o‘rganiladi. Shuningdek, byudjet siyosatining shakllanishi va amalga oshirilishida ochiqlik prinsipining roli ta’kidlanadi.

Budjet siyosatini shakllantirishda bozor munosabatlari elementlarini to‘lig‘icha inobatga olish uchun zaruriy imkoniyatlar vujudga kelmoqda. Shuningdek, budjet xarajatlari tarkibida “qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joylar qurish dasturini birgalikda moliyalashtirishga kredit liniyasi” yo‘nalishi bo‘yicha mablag‘lar ajratib kelinmoqda. Ushbu tadbirlarni moliyalashtirishni ijtimoiy soha xarajatlari tarkibida amalga oshirish ko‘zda tutiladi.

Ta’kidlash lozim, budjet siyosatining amalga oshirilishi nafaqat mablag‘larning hajmi, balki islohotlarning yangi bosqichga chiqishi bilan ham izohlanar ekan. Shu boisdan, budjet xarajatlari yo‘nalishlarining shakllantirilishida uni amalga oshirilish elementlariga qat’iy rioya etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Bu borada, professor J.Zaynalov quyidagicha fikrni bayon etadi. “Respublika miqyosida amalga oshirilayotgan barcha xarajat yo‘nalishlari, shu jumladan, tumanlarda amalga oshirilayotgan xarajatlar yo‘nalishlari to‘g‘risida axborot olish, shuningdek, xalq ta’limi va sog‘liqni saqlash sohasida budjet

tashkilotlarining moliyalash borasida xizmatlarni takomillashtirishga ehtiyoj tobora ortib bormoqda" (Zaynalov J.R., Aliyeva S.S. G'azna tizimi samaradorligini ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan xizmatlarni rivojlantirish yo'llari//"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, may-iyun, 2014 yil.).

J.Zaynalov tomonidan ilgari surilgan g'oyada budjet xarajatlarini amalga oshirilishida asosiy e'tiborni ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi xarajatlariga qaratmoqda. Shuningdek, u budjet xarajatlarining samaradorligini ta'minlashning natijadorligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi (http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/7_J_Zaynalov.pdf).

O'zbekistonda 2017 yil 7 fevralda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli Farmonning qabul qilinishi bilan budjet tizimida mamlakatimizning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini saqlab qolayotganligini va ushbu o'zgarishlar mazkur Farmonga muvofiq budjet xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligi va budjetlararo munosabatlarni takomillashtirishni o'zida aks ettirishi bilan izohlanadi. Mazkur strategiya hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli Qaroriga muvofiq, budjet siyosatida shaffoflik muhim omillardan biri ekanligi qayd etib o'tildi. Budjet xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligi budjet siyosatining birlamchi omili bo'lsa, ikkinchi omil sifatida shaffoflik qayd etilayotganligi budjet siyosati yuritilishidagi muhim yo'nalishlardir. Qayd etish lozim, davlat budjetini shakllantirish va ijro etilishi yuzasidan fuqarolar ishtirokining tuman (shahar)lar budjetlari qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirishni nazarda tutadigan mexanizmi joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, “Ochiq budjet” portalining ishga tushirilishi ham shaffoflik borasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Budjetning ochiqligini o‘rganishning quyidagi hujjatlarni inobatga olgan holda amalga oshirilishi nazarda tutilgan (https://www.mf.uz/media/file/press/budget_2019_uzb.pdf):

– budjetning dastlabki loyihasi;

– budjet loyihasi;

– qabul qilingan budjet;

– fuqarolar uchun budjet;

– joriy hisobot;

– yarim yillik hisobot;

– yillik hisobot;

– auditorlik hisoboti.

Yuqorida qayd etilgan budjet jarayonlarining har bir bosqichida fuqarolarning, jumladan jamoatchilik nazoratining faol ishtiroki talab etilmoqda. Jumladan, hududlarda budjetni shakllantirishda jamoatchilik fikri asosida umumiy xarajatlarning 10 foizi miqdorida o‘zgartirish kiritish imkonini berilishi shaffoflikni ta’minlashga shart-sharoit yaratib beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida budjet siyosatining quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishini qayd etish mumkin:

– ijtimoiy soha xarajatlarini rejalashtirishda tizimli tahlil elementlaridan foydalanish, bunda: sog‘liqni saqlash tizimidagi ijobiy natijalar o‘laroq, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini oshirishning passiv xususiyatga ega bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, boshqacha aytganda, insonlarning umri uzayishi bilan ularning yalpi daromadni yaratishdagi ulushini ham shunga muvofiqlashtirish lozim. Shunda o‘rtacha umr ko‘rishning uzayishi aktiv xususiyatga ega bo‘ladi. Mazkur holatda esa, insonlarning ta’lim olishlari uchun ijtimoiy va moliyaviy shart-sharoitlarni

nostandartlashtirish lozim bo‘ladi;

– budjetning iqtisodiyot xarajatlari hisobidan budjet xarajatlarini oshib ketishini oldini olish uchun iqtisodiyotda davlat ulushini kamaytirish, davlat budjeti hisobidan markazlashgan investitsiyalarning moliyalashtirilishini bosqichma-bosqich kamaytirib borish, bunda davlat-xususiy sheriklik amaliyotiga ustuvorlik berish;

iqtisodiyotning zamonaviylashuvi natijasida ekologik oqibatlarni bartaraf etishga qaratilgan islohotlarni amaga oshirishda budjet siyosatiga ustuvorlik berish. Bunda ekologik vaziyatni murakkablashtiruvchi jarayonlarni budjetning ta’sir mexanizmi orqali tartibg